



O'ZBEKISTONDA XAVFNI BOSHQARISH DOIRASIDA SEGMENTLASHNING AHAMIYATI HAMDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

PhD Nasimov Ravshanjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-2295-430X

ravshanjonnasimov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish sharoitida soliq xavflarini oldindan aniqlash va baholash tizimi ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashishda soliq to'lovchilarni xavf darajasiga ko'ra segmentatsiya qilish va soliq uzilishi (tax gap) koeffitsiyentini minimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Maqola doirasida soliq risklarini aniqlash mezonlari va ularni miqdoriy baholash modellari ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston soliq tizimida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq xavfi, xavfni boshqarish, xavfni tahlil qilish, soliq tekshiruvlari, yashirin iqtisodiyot, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar bazasi, xavfni kamaytirish, soliq uzilishi.

ВАЖНОСТЬ СЕГМЕНТАЦИИ В РАМКАХ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

PhD Насимов Равшанжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье приоритетной задачей является система предварительной идентификации и оценки налоговых рисков в контексте цифровизации налогового администрирования и снижения человеческого фактора. В частности, актуальность темы определяется необходимостью совершенствования механизмов сегментации налогоплательщиков по уровню риска и минимизации коэффициента налогового разрыва в борьбе с «скрытой экономикой». В статье рассматриваются критерии идентификации налоговых рисков и модели их количественной оценки, а также предлагаются способы повышения эффективности управления рисками в налоговой системе Узбекистана.

Ключевые слова: налоговый риск, управление рисками, анализ рисков, налоговые проверки, скрытая экономика, искусственный интеллект, большие данные, снижение риска, налоговый разрыв.

THE IMPORTANCE OF SEGMENTATION WITHIN THE FRAMEWORK OF RISK MANAGEMENT IN UZBEKISTAN AND WAYS TO IMPROVE IT

PhD Nasimov Ravshanjon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *In this article, the priority task is the system of preliminary identification and assessment of tax risks in the context of digitalization of tax administration and reduction of the human factor. In particular, the need to improve the mechanisms for segmenting taxpayers by risk level and minimizing the tax gap coefficient in the fight against the "hidden economy" determines the relevance of the topic. The article considers the criteria for identifying tax risks and models for their quantitative assessment, and makes proposals for improving the effectiveness of risk management in the tax system of Uzbekistan.*

Keywords: *tax risk, risk management, risk analysis, tax audits, hidden economy, artificial intelligence, big data, risk reduction, tax gap.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu soliq nazorati jarayoniga risk-orientirlangan yondashuvni to'liq joriy etishdir. Soliq riskini baholash uslubiyati nafaqat davlatning moliyaviy yo'qotishlarini kamaytirish, balki halol soliq to'lovchilar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Chunki mazkur tizim tekshiruvlarni kamaytirib, asosiy e'tiborni soliq to'lashdan bo'yin tovlash ehtimoli yuqori bo'lgan "intizomsiz" subyektlarga qaratish imkonini beradi. Ushbu maqola aynan mana shu uslubiy bo'shliqlarni o'rganish va sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazoratini amalga oshirish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq nazoratining mohiyati, shakllari va usullariga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xorijiy olimlardan Stiglis (2000), Masgreyv (1989) va Samuelsonlar (2010) soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida soliq nazorati soliq siyosatining samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Shuningdek, Olson, Smit va Shnayder (2002) tadqiqotlarida soliq nazorati va soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, samarali soliq nazorati soliqdan qochish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MDH davlatlari olimlaridan Gryaznova (2004), Goncharenko (2023), Mayburov (2017) va Yutkina (2002) ishlarida soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari chuqur yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda soliq nazorati davlat byudjeti daromadlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimlardan Abdurahmonov (2020), Vahobov (2019), Mustafuqulov (2020), Toshmatov (2019) va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning institutsional asoslari tahlil qilingan. Ayniqsa, ular soliq nazoratini

raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Olennikovning (2017) fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to'lovchining rejalashtirgan hatti-harakatlari hisoblanadi.

Makoveskiy, Zareskaya (2017) kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tashkil etishdir" deydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq organlari tomonidan soliq tushumlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli xil variatsiyalar, umumiy soliq uzilishlari, soliq to'lovchilar sonining o'zgarishi, soliq hisobotlarining o'z vaqtida taqdim etilishi, soliqlarni byudjetdan qoplashga taqdim etilgan arizalar soni kabi ko'rsatkichlarni baholashda segmentlar umumiy tasniflash guruhi sifatida foydalaniladi.

Segmentlash soliq to'lovchilarni nazorat qilish yoki ularga ko'mak berish kabi maqsadlarini amalga oshirishda, qaysilariga qanday paytlarda katta e'tibor qaratish lozimligini belgilab beradi.

Bu o'z navbatida turli xil guruhlar uchun o'ziga xos ta'sir choralari ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bu funksiya hattoki soliq organining alohida soliq guruhlari uchun yangi tuzilmalar tashkil etishiga ham olib keladi. Chunki bunday guruhlarning soliq tushumlariga ta'siri ular foydalanadigan soliq rejimlari, imtiyozlar, ular amalga oshiradigan operatsiyalar hajmining kattaligi bilan o'rtacha biznesdan farqlanishi, ularga alohida e'tiborni talab qiladi.

Turli xil davlatlarning soliq organlari soliq to'lovchilarning xususiyatlari, mamlakat iqtisodiyotini harakatlantiruvchi omillar hamda o'zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda segmentlashga turlicha yondashadilar. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq to'lovchilar makrosegmentlarga, hududiy segmentlarga hamda soliq xavf darajasidan kelib chiqqan holda segmentlarga ajratiladi.

Korxonalar biznesning keng qamrovliligidan kelib chiqqan holda, yirik soliq to'lovchilar, QQS va foyda solig'ini to'lovchi o'rta biznes hamda aylanmadan soliq to'lovchi kichik korxonalariga ajratiladi. Ushbu segmentlashdan kelib chiqqan holda soliq ma'murchiligini amalga oshirish 1-jadvalga muvofiq quyidagi tuzilmalar kesimida amalga oshiriladi.

1-jadval

Soliq to'lovchilarni makrosegmentlar asosida bo'linishi (2025-yil noyabr holatiga)

Segment guruhlari	Soliq to'lovchilar soni	Soliq ma'murchiligini yurituvchi tuzilma
Yirik soliq to'lovchilar	897	Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi
O'rta biznes	189 541	Hududiy soliq boshqarmalari
Kichik biznes	378 156	Hududiy soliq inspeksiyalari
Jami	568 594	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosidan muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq organlarida ushbu segmentlar bo'yicha umumiy tashqi manba ma'lumotlari shakllantirilgan bo'lib, ma'lumotlarni boshqarish va tahlillar Soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan holda amalga oshiriladi. Ya'ni tashqi manba ma'lumotlarini yig'ishga va qayta ishlashga Soliq ma'murchiligini yurituvchi tuzilmaga huquq berilmagan.

Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 12-iyuldagi 3172-sonli Qarori bilan belgilangan. Unga ko'ra aksiz solig'i to'lovchilari (bundan alkagol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va yoqilg'i va gaz quyish shahobchalari mustasno (agar ularning sof tushumi belgilangan miqdordan oshsa yirik soliq to'lovchi sifatida belgilanishi mumkin), moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi takshilotlar, strategik ahamiyatga ega yirik sanoat korxonalarini hamda yillik sof tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 735 ming baravaridan yuqori bo'lgan (shu bilan birga xodim soni 10 nafardan kam bo'lmagan) sub'ektlar yirik soliq to'lovchilar sifatida tasniflanadi. Ularning soni bugungi kunda 897 tani tashkil etmoqda.

O'rta biznes vakillariga yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilmagan qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lovchilari kiradi.

Kichik biznes vakillari asosan aylanmadan soliq to'lovchilar bo'lib, ularga yillik aylanmasi 1 mlrd so'mga yetmagan tadbirkorlik sub'ektlari kiradi. Hisob yuritishni osonlashtirish maqsadida ularga aylanmadan 2 foizdan 4 foizgacha yoki qat'iy belgilangan summadagi aylanmadan olinadigan soliq to'lash imkoniyati berilgan. Ushbu segmentlar ma'muriy tuzilmalar va ularning vazifalarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlar salohiyatidan kelib chiqqan holda soliq stavkalari hududlar kesimida turlicha belgilanadi yoki hududda tashkil etilgan iqtisodiy zonalardan ro'yxatdan o'tgan korxonalariga soliq imtiyozlari taqdim etiladi.

Shu bilan birga ma'lum bir hududda soliq qonunchiligini buzishga moyillik yuqori bo'lishi mumkin. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda soliq to'lovchilar hududlar kesimida ham segmentlarga ajratiladi. Hududlar kesimida shubhali korxonalar sonini ko'radigan bo'lsak, Toshkent shahri, Andijon viloyati va Toshkent viloyatida bunday sub'ektlar boshqa hududlarga nisbatan ko'p ro'yxatdan o'tgan. (2-jadval)

2-jadval

**Ko'zbo'yamachilik bitimlarini tuzgan shubhali korxonalar soni
(2025-yil noyabr holatiga)**

Hududlar	Korxonalar soni	Jami nisbatan ulushi, foizda
Jami	5 082	100%
Qoraqalpog'iston Res.	354	7%
Andijon viloyati	640	13%
Buxoro viloyati	316	6%
Jizzax viloyati	112	2%
Qashqadaryo viloyati	273	5%
Navoiy viloyati	144	3%
Namangan viloyati	435	9%
Samarqand viloyati	234	5%
Sirdaryo viloyati	209	4%
Surxondaryo viloyati	223	4%
Toshkent viloyati	608	12%
Farg'ona viloyati	549	11%
Xorazm viloyati	144	3%
Toshkent shahar	826	16%
Hududlararo inspeksiyasi	15	0%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bu esa ushbu hudud soliq to'lovchilarda sohta bitimlarni tuzish orqali soliq nafi olishga moyillik boshqa hudud soliq to'lovchilariga nisbatan kuchli ekanligini bildiradi. Shunga ko'ra soliq organi tomonidan ushbu hududlarda tiyib turuvchi nazorat instrumentlari keng ko'lamda qo'llaniladi. Soliq to'lovchilarning xulq-atvoridan kelib chiqqan holda soliq xavfi darajalari aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq soliq to'lovchilar soliq xavfi yuqori, o'rta va past bo'lgan sinflarga ajratiladi. Qaror talablaridan kelib chiqqan holda soliq xavfi yuqori soliq to'lovchilarda soliq auditi, soliq xavfi o'rta bo'lgan soliq to'lovchilarda sayyor va kameral soliq tekshiruvlari tayinlanadi. Soliq xavfi past bo'lgan soliq to'lovchilarda nazorat tadbirlari o'tkazilmaydi.

Segmentlashning yana bir turi sifatida yuqori likvidli tovarlar savdosi ustidan soliq nazoratini oshirish maqsadida aksiz solig'iga tortilishini keltirish mumkin. Jumladan, alkogol va neft-gaz mahsulotlari ham shular jumlasidan hisoblanadi.

Jumladan, alkogol mahsulotlari bo'yicha soliq nazoratini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 737-son qaroriga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan raqamli markirovkalash tizimi joriy etildi. Ushbu tizim ishlab chiqarilgan va import qilingan tovarlar zanjirini kuzatgan holda oxirgi iste'molchiga tovar sotilgungacha bo'lgan jarayonni nazoratga oladi. Shuningdek, xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.12.2025 yildagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab transport vositalariga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish, alkogol va tamaki mahsulotlari uchun to'lovlar faqatgina bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Xavfni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar

Soliq qo'mitasi tomonidan xavfni bartaraf etishga yoki oldini olishga qaratilgan bir nechta dasturlar ishlab chiqilgan. Shunday dasturlardan biri Soliq-hamkor tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida jismoniy shaxslar tomonidan ma'lumotlar soliq organiga yuboriladi. Soliq organi tomonidan mazkur murojaatlarda keltirilgan holatlarning mavjudligiga sayyor soliq tekshiruvi orqali aniqlik kiritiladi. Sayyor soliq tekshiruvi davomida zarur holatlarda nazorat xaridi amalga oshirilib, soliqqa oid huquqbuzarlikka aniqlik kiritiladi.

Mazkur tizim bir tomondan ist'molchilarga xarid chekini talab qilib olish va keshbekka ega bo'lish huquqini tiklasa, ikkinchi tomondan xufyona iqtisodiyot va P2P operatsiyalariga qarshi kurashishda "whistleblowing" ya'ni qonunbuzarliklar haqida xabar berish orqali ishni samarali tashkil etishga yordam beradi. Albatta bunda, soliq to'lovchilardan ham huquqbuzarlikka duch kelganda befarq bo'lmaslik talab etiladi.

Mazkur 3-jadvalda 2022-2024-yillarda tizim orqali kelib tushgan murojaatlar soni dinamikasini hamda aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlik turlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin. 3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 91 foiz - 92 foiz murojaatlar chek bermaslik bo'yicha kelib tushgan. Bu esa daromadlarni yashirish bilan bog'liq xavfning mavjudligini anglatadi. Aniqlangan huquqbuzarliklar soni o'tgan yilga nisbatan 2023-yilda 16 foizga (145 mintadan 122 mingtagacha) kamaygan, 2024-yilda esa 2023-yilga nisbatan 19 foizga (99 mingtagacha) kamaygan.

**Soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida Soliq-hamkor tizimi
orqali kelib tushgan murojatlar**

Ko'rsatkichlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil		O'zgarishi, foizda	
	soni	Ulushi, %	soni	Ulushi, %	soni	Ulushi, %	2023/2022	2023/2024
Jami murojaatlar soni	145 224	100	122 099	100	99 128	100	-16	-19
Shundan, chek bermaslik	132 818	91,5	112 926	92,5	90 216	91,0	-15	-20
To'lovni plastik karta orqali qabul qilmaslik	6 056	4,2	4 777	3,9	4 273	4,3	-21	-11
Plastik karta uchun xarid summasini oshirish	496	0,3	238	0,2	212	0,2	-52	-11
Boshqalar	5 854	4,0	4 158	3,4	4 427	4,5	-29	6
Takroriy yoki tekshiruv davom etayotganligi sababli qaytarilgan	67 885	46,7	68 329	56,0	54 435	54,9	1	-20
Tekshirilgan	71 957	49,5	48 668	39,9	37 897	38,2	-32	-22
Ko'rib chiqish jarayonida	5 382	3,7	5 102	4,2	6 915	7,0	-5	36

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu tendensiya daromadlarni yashirish bilan bog'liq xavfning tizim ishga tushirilishi natijasida yildan-yilga kamayib borganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Shuningdek, 40-50 foiz murojaatlarning rad etilganligi, tizim doirasida kelgan murojaatlarni segmentlash tajribasi yaxshi yo'lga qo'yilganligini bildiradi.

**Soliq-hamkor tizimi orqali kelib tushgan murojatlar asosida o'tkazilgan sayyor
tekshiruvlar tahlili**

Hududlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil		O'zgarishi, foizda	
	tekshiruv soni	Ulushi, %	Tekshiruv soni	Ulushi, %	Tekshiruv soni	Ulushi, %	2023/2022	2023/2024
Jami Respublika	72 047	100	46 568	100	33 053	100	-35	-29
Qoraqalpog'iston Res.	1 466	2,0	553	1,2	996	3,0	-62	80
Andijon vil	3 842	5,3	2 200	4,7	2 274	6,9	-43	3
Buxoro vil	3 591	5,0	2 640	5,7	1 843	5,6	-26	-30
Jizzax vil	2 484	3,4	1 656	3,6	826	2,5	-33	-50
Qashqadaryo vil	5 007	6,9	3 541	7,6	2 287	6,9	-29	-35
Navoiy vil	3 983	5,5	2 556	5,5	1 203	3,6	-36	-53
Namangan vil	3 112	4,3	1 926	4,1	1 772	5,4	-38	-8
Samarqand vil	5 565	7,7	5 680	12,2	3 106	9,4	2	-45
Sirdaryo vil	1 912	2,7	1 187	2,5	680	2,1	-38	-43
Surxondaryo vil	3 642	5,1	2 513	5,4	1 671	5,1	-31	-34
Toshkent vil	6 623	9,2	4 034	8,7	2 971	9,0	-39	-26
Farg'ona vil	3 736	5,2	2 068	4,4	1 825	5,5	-45	-12
Xorazm vil	3 027	4,2	1 948	4,2	2 267	6,9	-36	16
Toshkent sh.	24 057	33,4	14 066	30,2	9 332	28,2	-42	-34

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur 4-jadvalning ma'lumotlari tahlil qilinsa, murojaatlarning eng ko'p qismi 28-33 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Buni hududdan ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik sub'ektlarining soni boshqa hududlarga nisbatan ko'pligi hamda daromadlarni yashirish bilan bog'liq xavfning salmoqli ekanligi bilan izohlash mumkin. Murojaatlar soni o'zgarishiga mos ravishda o'tkazilgan tekshirishlar soni ham kamayib, kamayish tendensiyasi 2023-yil hamda 2024-yillarda 35 foiz va 29 foizni tashkil etgan. Xavfni bartaraf etishga qaratilgan samarali instrumentlardan yana biri Avtokameral dasturi hisoblanadi.

Soliq kodeksining 138-moddasida avtokameral dasturi tekshiruvdan oldingi tahlil deb nomlangan va unga soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini va uning faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotni avtomatlashtirilgan tahlil qilish deb tarif berilgan. Bunda albatta, avtomatlashgan tahlilni o'tkazish uchun kerakli tashqi manbalar shakllanganligini inobatga olish lozim. Agar tashqi manba yetarlicha shakllanmagan bo'lsa avtokameral kerakli natija bermaydi.

Tahlil soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to'lovchining ishtirokisiz o'tkaziladi. Soliq organlarining avtomatlashtirilgan tizimi soliq to'lovchi to'g'risidagi mavjud butun ma'lumotni tahlil qiladi. Bu soliq to'lovchini identifikatsiya qilish, Soliq kodeksiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan soliqni hisoblab chiqarish va natijani soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar bilan solishtirish imkonini beradigan ma'lumotlardir.

5-jadval

Avtokameral tizimi orqali amalga oshirilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijalari

Hududiy soliq organlari	Soliq xavfini bartaraf etilishi, mlrd so'm							
	2022 yil		2023 yil		2024 yil		Bartaraf etilgan xavf summasi o'zgarishi, %	
	korxonasi soni	xavf summasi	korxonasi soni	xavf summasi	korxonasi soni	xavf summasi	2023/2022	2024/2023
Jami Respublika	53 011	4 018,3	114 037	6 633,1	76 421	3 269,4	65	-51
Qoraqal. Res	2 699	60,8	6 109	141,4	4 190	55,3	133	-61
Andijon vil	3 154	123,6	6 764	571,2	5 205	111,9	362	-80
Buxoro vil	3 469	99,4	7 132	298,8	6 056	161,5	201	-46
Jizzax vil	2 340	139,3	6 038	75,1	2 442	59,2	-46	-21
Qashqadaryo vil	5 254	177,6	12 218	166,1	6 436	86,7	-6	-48
Navoiy vil	2 445	57,7	5 295	114,2	2 632	66,7	98	-42
Namangan vil	3 044	81,9	6 640	167,4	4 687	106,5	104	-36
Samarqand vil	5 312	178,8	11 306	365,8	7 219	113,8	105	-69
Sirdaryo vil	1 549	56,1	3 292	88,6	2 983	58,2	58	-34
Surxandaryo vil	3 064	110,9	6 651	137,3	4 506	94,3	24	-31
Toshkent vil	4 648	159,3	9 570	287,4	6 296	211,5	80	-26
Farg'ona vil	4 870	175,2	10 533	220,9	6 410	131,4	26	-41
Xorazm vil	3 164	46,4	7 465	95,8	3 621	69,5	106	-27
Toshkent sh	7 470	286,4	14 211	640,5	12 488	494,4	124	-23
YSTBHSI	529	2 264,9	813	3 262,6	1 250	1 448,5	44	-56

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xususan, EHF (masalan, MXIK), BYuD, inyoislar, TSOYaEAT, kadastr va E-ijara tizimlaridagi ma'lumotlar, my.soliq.uz tizimidagi onlayn-NKM cheklaridagi ma'lumotlar va

solliq organlarida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar solliq to'lovchi tomonidan muayyan muddatlarda taqdim etilgan solliq hisobotlari ma'lumotlari bilan solishtirib ko'riladi. Avtokameral mezonlari takomillashtirilib bugungi kunda 500 taga yaqinlashdi. Mazkur mezonlar asosida hisob-kitob natijalarini my3.solliq.uz portali orqali solliq to'lovchiga ham ko'rish imkoniyati yaratilgan.

Xususan, 5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2023-yilda bartaraf qilingan xavf summasi o'tgan yilga nisbatan 65 foizga yoki 2,6 trn.so'mga oshgan.

Buni avtokameral mezonlarini ko'payib borish tendensiyasi bilan izohlash mumkin. Mezonlar soni 2022-yilda 400 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 500 taga yaqinlashgan. Yana bir omil bu solliq qonunchiligining tez-tez o'zgarishi natijasida solliq to'lovchilar tomonidan majburiyatlarini to'liq tushunib yetmasligidadir.

2024-yilda o'tgan yilga nisbatan bartaraf etilgan xavf summasi 6,2 trn so'mgacha yoki 51 foizga kamaygan. Bunga 2 ta omilni sabab qilib ko'rsatish mumkin: 2024-yilga kelib hisobotlarining avtomatlashtirilishi natijasida texnik xatoliklar soni kamaygan; Solliq to'lovchi tomonidan hisobot ko'rsatkichlari kelajakda tekshirishlarga sabab bo'lib ovoragarchilikni ko'paytirmaslik maqsadida avtokameral formulalariga moslab taqdim etilmoqda. Agar formulalarda xatoliklar ko'plab uchrab tursa bu 2-holatni qo'llashga olib keladi. Chunki formulalarning xato ishlashi solliq to'lovchidan asoslarni taqdim etishni, ularni solliq organiga tushuntirishni talab etadi.

Solliq organlarining tashqi manba dasturi imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va solliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni bilan Davlat solliq qo'mitasiga 2021-yil 1-aprelgacha 2 - ilovaga muvofiq real vaqt rejimida qo'shimcha ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan idoralararo apparat majmuasini foydalanishga topshirish vazifasi belgilab berildi. 2020-yilda berilgan topshiriqlar ijrosi sifatida 2025-yilga kelib solliq organlari 50 dan ortiq vazirlik va idoralardan 176 xil yo'nalishdagi ma'lumotlarni olib, solliq ma'murchiligini amalga oshirishda foydalanib kelmoqda. Misol uchun, bojxona organlari bilan import eksport operatsiyalriga oid ma'lumotlarning solliq organlari ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilinishi qo'shilgan qiymat solig'i hisobotini, kadastr organlari bilan ma'lumot almashinuvi esa yer va mulk solig'i hisobotlarini proaktiv rejimda shakllantirish imkoniyatini yaratdi. Bundan tashqari mazkur ma'lumotlarning asosiy qismi solliq to'lovchini va solliq ob'ektlarini hisobga olishda tayanch manba vazifasini bajarib kelmoqda.

6-jadval

Solliq organlarining idora va vazirliklardan oladigan tashqi manba ma'lumotlari

Ko'rsatkichlar	Soni
Vazirlik va idoralar	51
Jami ma'lumotlar, shundan yo'nalishlar bo'yicha	176
Barqarorlik reytingini shakllantirish	8
Imtiyozlar hisobini yuritish	9
Solliq qarzini undirish	1
Solliq tushumlari hisobini yuritish	8
Solliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish	6
Xavfni tahlil qilish	67
Hisobga olish	77

Manba: Solliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu 6-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladan bo'lsak, 176 xil yo'nalishdagi ma'lumotlarning salmoqli qismini 67%ni hisobga olish ya'ni ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari

tashkil etadi. Ikkinchi muhim yo'nalish xavfni tahlil qilish maqsadida olingan ma'lumotlar bo'lib, ularning soni 67 tani tashkil etmoqda. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, sub'ektlarni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng asosiy e'tibor xavfni tahlil qilishga qaratiladi.

Ushbu 7-javdalga muvofiq xavfni tahlil qilish yo'nalishidagi ma'lumotlar tahlil etilganda ularning 37 tasidan ma'lumotlar kelayotganligini 13 tasi ishlab chiqish jarayonida ekanligi va 17 ta yo'nalishdan ma'lumotlar taqdim etilmayotganligini ko'rish mumkin. Soliq xavfini tahlil qilishda Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan bank aylanmasiga va jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga oid operatsiyalar muhim sanaladi.

7-jadval

Xavfni tahlil qilish yo'nalishidashi tashqi manba ma'lumotlarining holati

Ko'rsatkichlar	Yo'nalishlar soni
Jami	67
Ma'lumot kelyapti	37
Ishlab chiqilyapti	13
Ma'lumot kelmayapti	17

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Lekin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli qarorida ham soliq kodeksi normalarida ham (tekshirilayotgan subektlarga oid ma'lumotlar bundan mustasno) ushbu ma'lumotlar soliq organiga tahlil qilish maqsadida taqdim etilishi belgilab berilmagan.

Bundan tashqari, bugungi kunda avtomobil transporti orqali tashish xizmatlarini shakllantiruvchi ma'lumotlar manbasining, qurilish ishlarining bajarilish darajasi va smeta xarajatlarini ro'yxatga olish tizimining mavjud emasligi qurilish va transport sohasining soliq qonunchiligiga rioya etishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Soliq kodeksining 248-moddasi 5-bandiga muvofiq soliq solish maqsadlarida soliq organlariga bozor narxidan kelib chiqqan holda narxlarga tuzatish kiritish imkoniyati berilgan bo'lsada, respublika ichidagi narxlarni shakllantiruvchi agentliklar faoliyati yo'lgan quyilmaganligi sababli bozor narxidan kelib chiqqan holda soliq bazasini aniqlash jarayoni ham noma'lumligicha qolmoqda.

Ushbu turli choralarning xususiyatlari soliq ma'muriyatiga ularni turli soliq to'lovchi segmentlari va xavflarga nisbatan strategik tarzda qo'llash imkonini beradi:

A. Bitta soliq to'lovchiga yo'naltirilgan choralarni yuqori xavfli va/yoki o'ta murakkab soliq muammolariga ega soliq to'lovchilar uchun qo'llash lozim. Uni auditlar, shaxsiy qarorlar, shaxsiy axborot materiallarini ko'rib chiqish kabi jarayonlar orali amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, Yirik soliq to'lovchilar bilan ishlashda, o'rta va kichik bizneslarga nisbatan ko'proq birga-bir munosabatlar ustuvor sanaladi.

B. Bir nechta soliq to'lovchilar guruhiga yo'naltirilgan choralarni umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan soliq to'lovchilar guruhiga qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki ular ma'lum darajada moslashtirishni talab etadi, ba'zi hollarda birga-bir aloqalar orqali kuzatuvni talab qiladi va o'rtacha ma'muriy xarajatlarga ega. Bunday choralar barcha segmentlarda qo'llanilishi mumkin, ammo o'rta biznes yoki o'rtacha xavfli guruhlar uchun ko'proq mos keladi. Muhim jihati – ushbu choralarga javob bermagan soliq to'lovchilarni kuzatish zarur. Agar bu amalga oshirilmasa, bu soliq ma'muriyatining nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

S. Keng ommaga mo'ljallangan choralar bir marta ishlab chiqilib, ko'plab soliq to'lovchilarga bir vaqtda tatbiq etiladi. Ular minimal darajada moslashtirishni talab qiladi (yoki avtomatlashtirilgan tarzda moslashtiriladi), birga-bir kuzatuvni kam talab qiladi va nisbatan

past ma'muriy xarajatlarga ega. Misol uchun, umumiy axborot materiallari, ommaviy tushuntiruv qarorlari, o'rtacha ko'rsatkichlardan chetlashgan soliq to'lovchilarga yuboriladigan xatlar, ma'lumotlar taqqoslash orqali yuzaga chiqqan qarama-qarshiliklar bo'yicha yuboriladigan ogohlantirish xatlari shular jumlasidan sanaladi. Bu choralar har bir soliq to'lovchi uchun xavf kichik bo'lgan, ammo ularning umumiy soni katta bo'lgan vaziyatlarda ayniqsa samarali hisoblanadi.

Samarali moslashuv strategiyalari va chora-tadbirlari soliq to'lovchilarning qonunga rioya qilish **xulq-atvorini belgilaydigan asosiy motivlar yoki omillarga** ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunda, choralar va intervensiyalar shaxslar, guruhlar yoki biznes sub'ektlarining aniq holatlari va harakatlantiruvchi omillariga mos bo'lishi kerak.

Soliq organlari tomonidan holatlar va harakatlantiruvchi omillar o'zgarib turishiga mos ravishda soliq to'lovchilarni "rioya qiluvchi" va "rioya qilmaydigan" toifaga ajratish har bir soliq to'lovchiga qanday chora qo'llash mumkinligini bilish imkoniyatini taqdim etadi.

Soliq to'lovchilarning qonunga rioya qilish xulq-atvori turli xil motivlar va omillar ta'sirida shakllanadi va rioya qilishga olib keluvchi yo'llar ham turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda tekshiruvlar qonunga rioya qilishni oshirish uchun samarali hisoblanishi mumkin (ayniqsa, dastlab qasddan rioya qilmaslik aniqlangan hollarda qayta tekshiruv o'tkazilishi), chunki bu holat xulq-atvorda o'zgarish zarurligini mustahkamlaydi. Bu strategiya samarali bo'lishi uchun uni soliq to'lovchilarga aniq tarzda yetkazish zarur. Biroq, tekshiruvlar yoki tekshiruv tahdidining qonunga rioya qilish bilan bog'liq munosabati katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin va har doim ham rioya qilish xulq-atvorini yaxshilab bermaydi, hatto rioya qilmaslikni kuchaytirishi ham mumkin.

Xulosa va takliflar.

Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish, raqamli soliq nazorati vositalarini rivojlantirish hamda soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Aslini olganda xavflarning o'zini ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Ularning birinchi guruhi tabiiy xususiyatga va oldindan baholash mushkul bo'lgan tabiiy-texnik muammolar bo'lib, bu kabi xavflarni boshqarish va ularning salbiy oqibatlarining oldini olish fan-taraqqiyotning darajasiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy xavflarni garchi aniqlash imkoni bo'lsada, ularning oqibatlari darajasi tabiiy, texnik va iqtisodiy xavflarga nisbatan juda yuqori bo'ladi va ularni bartaraf etish anchayin qiyin bo'ladi. Iqtisodiy xavflar esa, oqibati jihatidan ijtimoiy hisoblansada, ularni baholash, kelib chiqish omillarini aniqlash, boshqarish bir muncha murakkab bo'lsada, ammo tabiiy xavflarga nisbatan anchayin yumshoqroqdir.

Adabiyotlar/ Литература /Reference:

Musgrave R.A., Musgrave P.B. (1989) Public Finance in Theory and Practice. — New York: McGraw-Hill.

Samuelson P.A., Nordhaus W.D. (2010) Economics. —New York: McGraw-Hill Education.

Schneider F., Enste D.H. (2002) The Shadow Economy: An International Survey. — Cambridge: Cambridge University Press.

Stiglitz J.E. (2000) Economics of the Public Sector. — New York: W.W. Norton & Company.

Абдурахмонов Қ.Х. (2020) Давлат молияси ва солиқ сиёсати. — Тошкент: Fan va texnologiya.

Вахабов А.В. (2019) Солиқлар ва солиққа тортиш. — Тошкент: Иқтисод-молия.

Гончаренко Л.И. (2023) (под ред.). Налоги и налоогообложение. — М.: КноРус, — 239 с.

Грязнова А.Г. (2004) Финансово-кредитный энциклопедический словарь. — М.: Финансы и статистика, — 1168 с.

Майбуров И.А. (2017) (под ред.). Налоговая политика. Теория и практика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, – 519 с.

Маковеский С.А., Зарескава Е.А. (2017) Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания. Вестник института экономических исследований, № 3(7) 156.

Мустафоқулов Ш. (2020) Ўзбекистонда солиқ маъмурчилигини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий масалалари. – Тошкент.

Оленников С.М. (2017) Квалификацсиа уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступлениа. // Юридическая ответственност и ответственные юристы. №4. С.37-42.

Солиқ кодекси (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи. - 640 б.

Тошматов Ш. (2019) Солиқ сиёсати ва солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA.

Юткина Т.Ф. (2002) Налоги и налогообложение. – М.: ИНФРА-М. – 576 с.